IQTISODIY GEOGRAFIK RAYONLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI, TAKSONOMIK BIRLIKLARI VA JAHON TAJRIBASI

Jumaxonov Shavkatjon Zairjonovich
Geografiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Namangan davlat universiteti
Toshpo‘latov Abduqodir Muhammadjon o‘g‘li
Geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Ziyokor internatsional school NTM oliy toifali geografiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Maqolada iqtisodiy geografik rayonlashtirishning nazariy asoslari, taksonomik birliklarning nomlanishi, iyerarxik pog‘onasi va rasmiy maqomi hamda jahon mamlakatlarida rayonlashtirish tajribasi qiyosiy geografik jihatdan tahlil qilingan. Mintaqa, subregion, o‘lka, provinsiya, okrug va rayon atamalarining tabiiy geografik, iqtisodiy geografik va statistik tizimlardagi o‘rni taqqoslanib, ularning xalqaro miqyosda kelishilgan yagona taksonomiyasi mavjud emasligi asoslangan. O‘zbekistonni olti iqtisodiy rayonga ajratishning mezon va tamoyillari hamda mamlakatni tabiiy-xo‘jalik jihatidan rayonlashtirish natijalari yoritilgan. Iqtisodiy rayonlar to‘rini rasman tasdiqlash, taksonomik atamalarni bir xillashtirish hamda rayon chegaralarini tabiiy-xo‘jalik okruglari va mayatniksimon migratsiya oqimlari asosida aniqlashtirish taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *rayonlashtirish, taksonomik birliklar, mintaqa, subregion, o‘lka, provinsiya, okrug, tabiiy geografik rayon, iqtisodiy rayon, funksional rayon.*

Kirish. Geografik qobiq zonallik va azonallik qonuniyatlari ta’sirida turli miqyosdagi tabiiy-hududiy komplekslarga tabaqalashgan, jamiyat xo‘jaligi esa shu tabiiy zamin ustida hududiy mehnat taqsimoti orqali ixtisoslashgan hududiy tizimlarga ajralgan. Hududiy mehnat taqsimotini tabiiy boyliklarning miqdori emas, balki ularning xilma-xilligi va hududiy birikmalari rivojlantiradi, mehnat taqsimotining o‘zi esa iqtisodiy rayonlar shakllanishining moddiy negizi hisoblanadi. Rayon geografiya fanining bosh, birlamchi tushunchasidir. Shu bois rayonlashtirish tabiiy va iqtisodiy geografiya uchun umumiy bo‘lgan tadqiqot usuli sanaladi, zero rayonsiz geografiyani tasavvur qilib bo‘lmaydi [16].

Rayonlashtirish faqatgina ilmiy-metodologik tushuncha bo‘lish bilangina cheklanmaydi. Iqtisodiy rayonlar ilgari xalq xo‘jaligini rejalashtirish maqsadida ajratilgan bo‘lsa, hozir ular ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishning asosiy shakli va davlat mintaqaviy siyosatining obyekti sifatida dolzarb ahamiyatga ega [16; 122-b.]. Jahon amaliyotida rayonlar to‘ri statistika yuritish, mehnat bozorini tartibga solish, infratuzilmani rejalashtirish va hududlarga yordam ajratishning tayanchiga aylangan.

O‘zbekistonda bu borada o‘zaro bog‘liq uchta muammo mavjud. Avvalo, tabiiy va iqtisodiy geograflar hududni turli mezonlar asosida rayonlashtiradi. Natijada, tabiiy geografik chegaralar iqtisodiy va ma’muriy chegaralar bilan mos kelmaydi [21; 5-b.], bu esa ikki soha vakillari orasida uzoq yillardan beri davom etayotgan bahsga sabab bo‘lmoqda. Qolaversa, mintaqa, o‘lka, provinsiya, okrug va rayon atamalari turli tizimlarda turli pog‘onani bildiradi, ularning xalqaro miqyosda kelishilgan yagona taksonomiyasi esa ishlab chiqilmagan. Nihoyat, mamlakatda iqtisodiy rayonlar to‘ri hozirgacha rasman tasdiqlanmagan va rayonlar kesimida statistik ma’lumot yuritilmaydi [27; 37-b.]. Holbuki mamlakat cho‘l bilan voha, tekislik bilan tog‘ yonma-yon joylashgan arid o‘lkada joylashganligi sababli hududiy tafovut nihoyatda katta bo‘lib, aholi zichligi Andijon (818 kishi/km^2) va Navoiy (10 kishi/km^2) viloyatlarida bir-biridan 80 barobar farq qiladi [13].

Mazkur maqolaning **maqsadi** iqtisodiy geografik rayonlashtirishning ilmiy asoslari, taksonomik birliklari va jahon tajribasini tahlil qilish asosida O‘zbekistonda rayonlashtirishni

takomillashtirish yo‘llarini asoslashdan iborat. Shu maqsadda quyidagi **vazifalar** belgilab olingan:

– rayonlashtirishning mohiyati va nazariy asoslarini ochib berish;

– taksonomik birliklarning nomlanishi, iyerarxik pog‘onasi va rasmiy maqomini qiyosiy geografik tahlil qilish;

– jahon mintaqalari va MDH davlatlarida rayonlashtirishning ko‘rinishlari hamda amaliyotda qo‘llanishini tahlil qilish;

– O‘zbekiston iqtisodiy rayonlarining hozirgi holatini miqdoriy baholash va shu asosda taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Rayonlashtirish nazariyasi ikki ilmiy an’ana zaminida shakllangan. G‘arbiy Yevropada vujudga kelgan joylashtirish nazariyalari, ya’ni I.Tyunen, A.Veber, V.Kristaller va A.Lyosh ta’limotlari xo‘jalikni hududiy tashkil etishni xarajat, masofa va bozor orqali tushuntirgan [27; 93-99-b.]. Rus-sovet rayonlashtirish maktabi esa rejalashtirish ehtiyojidan kelib chiqqan bo‘lib, N.N.Baranskiy va N.N.Kolosovskiy nomi bilan bog‘liq hududiy ishlab chiqarish majmualari va energiya ishlab chiqarish sikllari ta’limotiga asoslangan [25; 30-b.]. Mintaqamizda tabiiy geografik rayonlashtirishda esa L.N.Babushkin va N.A.Kogay sxemalari asosiy o‘rin tutadi [21; 224-228-b.].

O‘zbekistonning iqtisodiy rayonlashtirilishi masalalari bilan turli bosqichlarda mamlakatimizdagi bir qator geograf va iqtisodchi olimlar, xususan, N.G.Sapenko, K.N.Bedrinsev, K.I.Lapkin, Z.M.Akramov, A.K.Bedrinsev, A.S.Soliyev, N.To‘xliyevlar shug‘ullangan [14; 156-b.]. Hozir qo‘llanayotgan olti rayonli sxema esa professor A.S.Soliyev tomonidan 1998-yilda asoslab berilgan [27; 37-b.]. Olim ilmiy maktabi vakili V.N.Fedorko tomonidan esa mamlakat tabiiy-xo‘jalik jihatidan rayonlashtirilgan [29, 30].

Xorijda rayonlar asosan ishga qatnov oqimlari bo‘yicha ajratiladigan funksional rayonlar sifatida o‘rganiladi [4, 10]. Shunga qaramay, taksonomik birliklarning rasmiy statistik tasniflardagi maqomi ilmiy rayonlashtirish tizimlari bilan qiyoslanmagan, turli qit’alar tajribasi esa O‘zbekiston sharoitiga tatbiqan yaxlit holda tahlil etilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda qiyosiy geografik, tizimli tahlil va statistik usullardan foydalanilgan. Manba sifatida ilmiy monografiya va maqolalar, xalqaro va milliy statistik tasniflarning rasmiy hujjatlari olingan. Miqdoriy tahlilda rayonning muayyan mahsulot ishlab chiqarishdagi ulushini uning mamlakat aholisidagi ulushiga nisbati sifatida aniqlanadigan ixtisoslashuv koeffitsiyenti qo‘llanilgan [31; 287-b.]. Jumladan:

$$K_i = (M_r / M_m) / (A_r / A_m) \qquad (1)$$

Bu yerda, M_r va M_m rayon va mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini, A_r va A_m esa rayon va mamlakat aholisi sonini bildiradi.

Xuddi shu yo‘l bilan rayonning yalpi ichki mahsulot, sanoat va qishloq xo‘jaligidagi ulushining aholidagi ulushiga nisbati hisoblangan. Hududning ichki tafovutlari eng yuqori va eng past ko‘rsatkichlar nisbatidan iborat hududiylik koeffitsiyenti orqali baholangan [16; 130-b.].

Natijalar va ularning muhokamasi. Rayonlashtirish yirik hududning ichki jihatdan yaxlit qismlarini aniqlash va o‘rganish jarayoni [25; 15-b.], rayon esa shu jarayonning natijasi, obyektiv mavjud hududiy birlikdir [16; 51-b.]. Tadqiqotchining vazifasi rayonlarni o‘ylab topish emas, balki ularning real mavjudligini ilmiy jihatdan asoslash, tuzilishi va aloqalarini o‘rganishdan iborat [22; 119-b.]. Shu bilan birga, barcha sohalarga birdek tegishli

«umumiy» rayon mavjud emas, har doim muayyan maqsadga qaratilgan aniq rayon ajratiladi [16; 50-51-b.], binobarin, bir hududning tabiiy va iqtisodiy geograf tomonidan turlicha bo‘linishi qonuniy holdir. Rayonlashtirishning o‘zi besh bosqichda bajariladi, ya’ni avval *rayonlarning taxminiy soni va yadrolari aniqlanadi*, so‘ng ularning *belgilari o‘rganiladi*, *chegaralar o‘tkaziladi*, hosil bo‘lgan to‘rning *pog‘onalari va ma’muriy bo‘linishga mosligi baholanadi* va nihoyat *kartalashtiriladi* [26; 13-19-b.].

Rayonlar ikki asosiy turga bo‘linadi. Bir jinsli rayon muayyan belgining hudud bo‘ylab bir xilligi asosida, tugunli rayon esa bitta markazga tortiladigan hududlar asosida ajratiladi [25; 17-b.], G‘arb adabiyotlarida ular formal va funksional rayonlar deb yuritiladi [4; 36-b.]. Klassik joylashtirish nazariyalarining rayonlashtirish uchun ahamiyati ham shu ikki turga borib taqaladi. Avgust Lyosh fanga kiritgan «iqtisodiy landshaft» tushunchasi hozirgi ma’nodagi iqtisodiy rayonga mos kelib, uning chegarasi bozorning ta’sir doirasi bilan belgilanadi. Valter Kristallerning markaziy o‘rinlar nazariyasi tugunli rayonlarning pog‘onaliligini tushuntiradi. N.N.Kolosovskiy ta’limotida esa iqtisodiy rayonlar asosini hududiy ishlab chiqarish majmualari, ularning asosini energiya ishlab chiqarish sikllari tashkil etadi [16], ya’ni rayonning yadrosi muayyan xomashyo va energiya negizidagi tarmoqlar uyg‘unligidan iborat. Funksional yondashuvda miqdoriy mezon qo‘llanib, mehnatga layoqatli aholisining kamida 15 foizi markazga ishga qatnaydigan hududiy birliklar shahar funksional hududiga kiritiladi [4; 38-b.].

Iqtisodiy rayonning shakllanishida rayon hosil qiluvchi markaz va ixtisoslashgan tarmoq muhim o‘rin tutadi [27; 34-b.]. To‘laqonli iqtisodiy rayonda ixtisoslashgan, yordamchi hamda mahalliy ehtiyojlarga xizmat qiluvchi tarmoqlardan iborat uch bo‘g‘in tarkib topadi. Rayon hosil qiluvchi omillar iqtisodiy va hududiy omillarga ajratiladi. Hududiy omillarga tabiiy sharoit va resurslar, aholining joylashuvi hamda geografik o‘rin kiradi [27; 33-34-b.]. Demak, tabiiy geografik omillar iqtisodiy rayonlashtirishda ham muntazam hisobga olinadi. Ma’muriy-statistik tamoyil rayonlarni ma’muriy birliklar doirasida ajratishni taqozo etadi [14; 155-156-b.]. Bu tamoyil iqtisodiy geografik rayonlashtirishni tabiiy geografik rayonlashtirish sxemasidan farqlovchi asosiy jihatlardan biridir. Biroq geografik qonuniyatlar ma’muriy birliklar chegarasiga emas, balki hududning o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘liq.

Taksonomik birliklarning nomlanishi, iyerarxik pog‘onasi va rasmiy maqomi ham o‘ziga xos. Rayonlashtirishda qo‘llanadigan atamalarning ma’nosi ular qaysi tizimda ishlatilishiga bog‘liq. Eng umumiy atama *mintaqa*, ya’ni region bo‘lib, u umumiy xususiyatlarga ega yer maydonini anglatadi, yuzdan ortiq ma’noda qo‘llanadi va tabiiy, iqtisodiy hamda siyosiy mintaqalarga ajratiladi [16; 46-b.]. Mintaqa aniq pog‘onani bildirmaydi, shu sababli u keng ma’noda Markaziy Osiyoga ham, Farg‘ona vodiysiga ham birdek ishlatilaveradi. Biroq iqtisodiy geografik tadqiqotlarda mintaqa tor ma’noda rayondan yuqori turadi.

Xalqaro miqyosda bu atamaning rasmiy maqomi Birlashgan Millatlar Tashkilotining M49 statistik standarti orqali belgilanadi. Unda qit’alar beshta mintaqaga, ular esa aholi soni va demografik sharoit jihatidan bir xillikka erishish maqsadida subregion va oraliq mintaqalarga bo‘lingan. Jumladan, Osiyo mintaqasi beshta subregionga ajratiladi. Xususan, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston Markaziy Osiyo subregionini tashkil etadi. Demak, subregion mintaqadan bir pog‘ona quyi turuvchi va bir

necha davlatni birlashtiruvchi birlikdir. Ammo standartning o‘zida bu guruhlash faqat statistik qulaylik uchun qilingani va hech qanday siyosiy yoki boshqa mansublikni bildirmasligi qayd etilgan [18], ya’ni uning rasmiyligi statistika doirasi bilan cheklangan.

Davlat ichidagi rayonlashtirishning iyerarxik pog‘onasi nisbatan aniq belgilangan tizim Yevropa Ittifoqining NUTS[2] tasnifidir. Belgilangan reglamentga ko‘ra birliklarni ajratishda mavjud ma’muriy bo‘linish va uning aholi soni asosiy mezon sifatida qayd etilgan [15]. AQShda esa aholi ro‘yxati ma’lumotlari shtatlardan tuzilgan (Shimoli-sharq, Janub, O‘rta G‘arb, G‘arb kabi) to‘rt mintaqa va to‘qqiz bo‘lim bo‘yicha e’lon qilinadi [19]. Bu tizimlarning barchasida mintaqa pog‘onasi tabiiy yoki xo‘jalik belgisi bilan emas, balki aholi soni va ma’muriy bo‘linish bilan belgilanadi.

Shuningdek, o‘lka, provinsiya, okrug, rayon kabi atamalar ilmiy rayonlashtirish maktabidan kelib chiqqan. O‘rta Osiyoning tabiiy geografik tizimida ular o‘lka, provinsiya, kichik provinsiya, okrug, rayon va landshaftdan iborat qat’iy pog‘onani hosil qiladi [21; 225-b.], bunda o‘lka eng yirik, rayon esa quyi birlik hisoblanadi. Provinsiya atamasi xorijiy tabiiy rayonlashtirishda ham shunga yaqin ma’noda qo‘llanadi, masalan, AQSh hududi relyef, tog‘ jinslari va geologik tarixning umumiyligi asosida 8 ta bo‘lim, 25 ta provinsiya va 86 ta seksiyaga ajratilgan [5]. Ayni vaqtda o‘lka, provinsiya va okrug ko‘pgina davlatlarda ma’muriy birlik nomi sifatida ham ishlatiladi. Kanadada provinsiya birinchi pog‘onali ma’muriy birlik bo‘lsa [11], Rossiyada federal okruglar mamlakatning eng yirik bo‘linmalari hisoblanadi va davlat klassifikatoriga iqtisodiy rayonlar bilan yonma-yon kiritilgan [24], o‘lka esa u yerda federatsiya subyektining bir turi sifatida ma’muriy mazmunga ega. Shunday qilib, okrug tabiiy geografiyada provinsiya ichidagi o‘rta pog‘onani, O‘zbekistonning tabiiy-xo‘jalik sxemasida provinsiyadan keyingi ikkinchi pog‘onani [29; 25-b.], iqtisodiy geografiyada viloyat ichidagi tumanlararo birlikni [27; 36-b.], Rossiyaning ma’muriy tizimida esa butun mamlakat miqyosidagi eng yuqori pog‘onani bildiradi.

Eng ko‘p chalkashlik *rayon* atamasi bilan bog‘liq. Tabiiy geografiyada u okrug va provinsiyadan keyingi quyi pog‘ona bo‘lsa, iqtisodiy geografiyada asosiy iqtisodiy rayon bir necha viloyatni birlashtiruvchi yirik birlikdir. Buning ustiga rayon so‘zi quyi ma’muriy birlik, ya’ni tuman ma’nosida ham ishlatilgan, vaholanki geografik rayon ma’muriy-boshqaruv rayonidan tubdan farq qiladi. Ba’zan iqtisodiy rayon iqtisodiy geografik rayon deb ham yuritiladi va bu ikki atama orasida jiddiy farq yo‘q [16].

Demak, rayonlashtirish birliklarining xalqaro miqyosda tasdiqlangan yagona taksonomiyasi mavjud emas. Rasmiy maqomga faqat statistik tasniflar ega bo‘lib, ularda pog‘ona aholi soni va ma’muriy bo‘linish bilan belgilanadi, ilmiy tadqiqotlarda esa u tabiiy mezon, ixtisoslashuv yoki oqimlar bilan aniqlanadi. Barcha tizimlarning o‘xshash jihati ularning pog‘onaliligi, quyi birliklarning yuqori birlik ichiga to‘liq joylashuvi va hududni qoldiqsiz qamrashidir. Farqi shundaki, bir xil atama turli tizimda turli pog‘onani bildiradi, shu sababli har bir tadqiqotda atamaning qaysi tizim va qaysi pog‘onada qo‘llanayotgani aniq ko‘rsatilishi shart.

Jahon tajribasida rayonlashtirishning ko‘rinishlari va qo‘llanishi hududiy xususiyatlarga ega. Yevropada rayonlashtirish, eng avvalo, yagona statistik makon yaratish va hududlarga yordam ajratish vositasi sifatida rivojlangan. NUTS tasnifi a’zo davlatlarning

[2] NUTS (fransuzcha, *Nomenclature des unités territoriales statistiques*) – Yevropa Ittifoqining hududiy statistika uchun ishlab chiqilgan yagona tasnifi

turlicha ma’muriy bo‘linishini aholi soni bo‘yicha taqqoslanadigan uch pog‘onaga keltiradi [15]. Ma’muriy birliklar haqiqiy xo‘jalik aloqalarini to‘liq aks ettirmagani uchun ular funksional rayonlar bilan to‘ldiriladi. Mehnat bozori hududlari ishga qatnov ma’lumotlari asosida belgilanadi. Finlandiya, Fransiya, Germaniya, Italiya va Buyuk Britaniyada ular milliy yoki Yevropa yordamiga muhtoj hududlarni aniqlashga, Avstriya va Daniyada esa mehnat bozori siyosatini yuritishga xizmat qiladi [10; 12-b.]. Yevropa tajribasining mohiyati ma’muriy-statistik va funksional to‘rlarning birga qo‘llanishidadir.

Amerika tajribasini AQSh misolida ko‘rish mumkin, u bir necha mustaqil to‘rning yonma-yon mavjudligi bilan ajralib turadi. Aholi ro‘yxati mintaqalari va bo‘limlari shtatlarni statistik jihatdan guruhlaydi, metropoliten va mikropoliten statistik areallar esa aholisi kamida 10 ming kishilik yadro va unga ishga qatnov orqali bog‘langan okruglardan tuziladi [19]. Shu areallar negizida butun mamlakatni qoplaydigan 179 ta iqtisodiy areal, ya’ni tugun va unga iqtisodiy bog‘liq okruglardan iborat mintaqaviy bozorlar belgilangan bo‘lib, ular hududiy daromad va iqtisodiy faollikni kuzatishda qo‘llanadi [8] hamda 11 megaregion ajratilgan [7]. Shtat chegaralarining atigi 47 foizi tugunli iqtisodiy rayonlar chegarasi bilan ustma-ust tushishi [26; 17-b.] bu yerda rayonlashtirish ma’muriy bo‘linishga emas, oqimlarga tayanishini ko‘rsatadi.

Osiyoda rayonlashtirish hududiy tafovutlarni o‘lchash va rejalashtirish vositasi sifatida qo‘llanadi. Xitoyda hududiy rivojlanish sakkizta iqtisodiy rayon kesimida tahlil qilinadi [3], rayonlar nomi esa ularning dengiz sohili va yirik daryo havzalari kabi tabiiy asosga tayanishini ko‘rsatadi. Hindistonda rejali sarmoyalarning hududlarga ta’sirini baholash maqsadida okruglar rayonlarga birlashtirilgan [2]. Janubiy Koreyada yo‘l tarmog‘i tahliliga asoslangan funksional rayonlashtirish amalga oshiriladi [12].

Afrikada rayonlashtirish, asosan, davlatlararo miqyosda namoyon bo‘ladi. BMT tasnifida qit’a Shimoliy Afrika hamda Sharqiy, Markaziy, Janubiy va G‘arbiy Afrika subregionlariga bo‘linadi [18]. Biroq ayrim tadqiqotchilar tomonidan ma’muriy-hududiy tamoyil asosida belgilangan rayonlar o‘rniga aviaqatnovlar oqimi va shaharlar ta’sir doirasi asosida ajratilgan tugunli subregionlar taklif etilgan [6]. Bu esa qit’ada chegaralari umume’tirof etilgan rayonlar to‘ri hali shakllanmaganidan dalolat beradi.

Avstraliyada rayonlashtirishning statistik va ilmiy ko‘rinishlari yaqqol ajralib turadi. Ilmiy manbalarda bu materik-davlat asosan to‘rtta iqtisodiy rayonga bo‘linishi keltirilgan [16; 122-b.]. Rasmiy statistik geografiya standartida esa shtatlar ichida mehnat bozorlarini ifodalovchi to‘rtinchi darajali statistik hududlar belgilangan bo‘lib, ishchi kuchi haqidagi choraklik ma’lumotlar shu hududlar kesimida e’lon qilinadi [1]. Shu jihatdan, mayatniksimon migratsiya asosida shtat chegaralarini kesib o‘tuvchi funksional iqtisodiy rayonlar ajratilgan, noto‘g‘ri tanlangan hududiy birlik esa bandlik siyosatida xato xulosalarga olib kelishi ko‘rsatilgan [9].

MDH davlatlarida rayonlashtirish rejalashtirish an’anasidan vujudga kelgan. Jumladan, 1920-yilgi GOELRO rejasida sakkizta, 1921-yilgi Gosplan loyihasida 21 ta rayon ajratilgan [25; 28-29-b.]. Rossiyada hozir 11 ta yirik iqtisodiy rayon va alohida Kaliningrad oblasti tan olinadi, ularning to‘ri ma’muriy bo‘linishga mos kelmaydi, ma’muriy tizimda esa bu pog‘onaga federal okruglar to‘g‘ri keladi. 2019-yilda qabul qilingan hududiy rivojlanish strategiyasida tarkibi iqtisodiy rayonlarga qisman mos keladigan makroregionlar ham belgilangan, iqtisodiy rayonlashtirishni takomillashtirish esa mintaqaviy siyosat vazifalari

qatoriga kiritilgan [25; 19, 35-b.]. Qozog‘istonda beshta iqtisodiy rayon ajratilgan hamda ularning mavjudligi iqtisodiyotning hududiy tashkil etilishi bilan belgilangan [28; 117-120-b.]. Qirg‘izistonda baland tizmalar bilan ajralgan Shimoliy va Janubiy rayonlar [20; 172-173-b.], Tojikistonda esa oltita iqtisodiy rayon ko‘rsatiladi va ularning chegaralari tizmalar hamda suvayirg‘ichlar bo‘ylab o‘tishi alohida qayd etilgan [23; 168-b.]. Bu davlatlarning barchasida rayonlar butun viloyatlardan tuziladi va ixtisoslashuv tarmoqlari bilan tavsiflanadi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi uchta umumiy qonuniyatni ko‘rsatadi. Rayonlashtirish hamma joyda aniq amaliy vazifaga, ya’ni statistika yuritish, mehnat bozorini tartibga solish, infratuzilmani rejalashtirish yoki integratsiyani tashkil etishga xizmat qiladi. Rasmiy to‘rlar ma’muriy birliklarga tayanadi, biroq ular deyarli hamma joyda oqimlarga asoslangan funksional rayonlar bilan to‘ldiriladi. Rayonlar to‘ri rasmiy maqom olgan joyda u boshqaruvda qo‘llanadi, maqomi belgilanmagan joyda esa ilmiy sxema bo‘lib qolaveradi. O‘zbekiston uchun bu tajribaning ahamiyati shundaki, mamlakatda ilmiy asoslangan sxema mavjud, biroq u na statistik tasnifga, na funksional tekshiruvga ega, ya’ni jahon amaliyotidagi uch bo‘g‘indan faqat birinchisi shakllangan.

Mamlakatimizda rayonlashtirish *mezonlari* sifatida to‘qqizta omil hisobga olingan. Jumladan, iqtisodiy geografik o‘rin va hududiy yaxlitlik, tabiiy sharoit va resurslar, mehnat resurslari va malakali mutaxassislar, hududning tarixiy rivojlanishi va xo‘jalik an’analari, ilmiy-texnologik va ta’lim infratuzilmasi, rayon hosil qiluvchi markazlar (tayanch shaharlar), transport-logistika infratuzilmasi hamda ichki va tashqi aloqalar imkoniyatlari, rekreatsiya va turizm resurslari, shuningdek, geoekologik vaziyat. Qolaversa, bir necha tamoyillar asosida rayonlashtirishning ilmiy jihatlari ochib berilgan. *Hududiy yaxlitlik tamoyiliga* ko‘ra, har bir rayon yaxlit bo‘lishi, bir-biridan uzilgan bo‘laklardan tashkil topmasligi kerak. *Ma’muriy-statistik tamoyil* rayonlarni ma’muriy-hududiy birliklar doirasida ajratishni talab qiladi, chunki bu statistik ma’lumotlardan foydalanishni va mintaqaviy siyosatni amalga oshirishni osonlashtiradi. *Komplekslilik tamoyili* rayon xo‘jaligiga ixtisoslashuvi va tarmoqlar tarkibi bilan birga, tarmoqlararo majmua sifatida qarashni taqozo etadi. *Tizim-tarkib tamoyili* rayonlashtirishning pog‘onasimon tuzilishini belgilaydi, ya’ni yirik birliklar tarkibida kichikroqlari ajratiladi. *Tarixiy tamoyil* esa xo‘jalikning shakllanish tarixi va rivojlanish istiqbollarini inobatga olishni anglatadi, shu bois xo‘jalikning hududiy tarkibi o‘zgargani sari rayonlashtirish sxemalari ham yangilanib boradi. Shu tariqa iqtisodiy rayonlar amalda davlat mintaqaviy siyosati va hududiy rejalashtirishning, ilmda esa iqtisodiy geografik tadqiqotlarning asosiy hududiy birligi bo‘lib xizmat qiladi [14; 156-b.].

O‘zbekistonda iqtisodiy rayonlashtirishning hozirgi holati bahsli ko‘rinishga ega. Jumladan, professor A.S.Soliyev har biri ikki yoki uch ma’muriy birlikdan iborat bo‘lgan 6 ta iqtisodiy rayonni[3], V.N.Fedorko esa 12 ta tabiiy-xo‘jalik okrugini ajratgan [30; 107-b.]. E’tiborli jihati, tabiat aniq chegaralab bergan Farg‘ona vodiysi 1960-yillardan beri barcha iqtisodiy rayonlashtirish sxemalarida o‘zgarmas rayon sifatida saqlanib kelgan [31; 286-287-b.]. Zarafshon rayoni esa tabiiy-xo‘jalik sxemasida ikki provinsiyaga tegishli Quyi Zarafshon va O‘rta Zarafshon okruglariga bo‘linadi. Demak, ikki tizim aholi va xo‘jalik

[3] A.Soliyev tasnifi bo’yicha mamlakat Toshkent, Farg’ona, Mirzacho’l, Zarafshon, Janubiy, Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonlariga ajratilgan.

jamlangan vohalarda bir-biriga mos keladi, siyrak o‘zlashtirilgan cho‘llarda esa keskin farq qiladi.

Tahlil natijalari hozirgi holatning to‘rt zaif tomonini ochib beradi. Iqtisodiy rayonlar rasmiy maqomga ega bo‘lmagani uchun ular kesimida statistika yuritilmaydi va mintaqaviy siyosat faqat viloyatlar miqyosida olib boriladi. Tabiiy va iqtisodiy geografiyada bir xil atamalar turli pog‘onani bildirgani sababli ikki sxema o‘zaro solishtirilmaydi. Viloyatlar asosida tuzilgan rayonlar voha bilan cho‘l o‘rtasidagi tafovutni yashiradi, masalan, maydoni 168,1 ming km² bo‘lgan Zarafshon rayonida o‘rtacha zichlik 42,7 kishini tashkil etadi, holbuki aholi va xo‘jalik Zarafshon daryosi bo‘yidagi vohada jamlangan. Rayon chegaralari esa ishga qatnov va yuk oqimlari bilan tekshirilmagan.

Jahon tajribasi bu muammolarni hal etishning aniq yo‘llarini ko‘rsatadi. Rayonlar to‘rini rasmiylashtirishda Yevropa tasnifidagi kabi uch pog‘onali statistik tizim, ya’ni asosiy iqtisodiy rayon, viloyat va tuman pog‘onalari asos qilib olinishi mumkin. Olti iqtisodiy rayonning aholisi 2,4 milliondan 10,3 million kishigacha bo‘lib, Toshkent, Janubiy va Quyi Amudaryo rayonlari birinchi darajali birlik uchun belgilangan 3 milliondan 7 milliongacha oraliqqa tushadi, Zarafshon rayoni esa unga yaqin turadi. Tasnifning barqarorligini ta’minlash uchun Yevropa reglamentida o‘zgartirishlar kamida uch yillik oraliq bilan kiritilishi belgilangan [15] va bunday qoida O‘zbekiston uchun ham maqbuldir. Voha va cho‘l tafovutini aks ettirish uchun Zarafshon va Quyi Amudaryo rayonlari ichida tabiiy-xo‘jalik okruglari chegarasi bo‘yicha kichik rayonlar ajratilishi lozim. Bunday ishni tuman miqyosida ham bajarish mumkinligini So‘x tumani tajribasi ko‘rsatdi, u yerda tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va geoekologik omillar asosida beshta kichik xo‘jalik rayoni ajratilgan [17; 141-142-b.]. Toshkent aglomeratsiyasining haqiqiy chegarasini esa Yevropa va Amerikada qo‘llanadigan ishga qatnov mezoni asosida aniqlash maqsadga muvofiq.

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan tadqiqot quyidagi xulosalarga olib keldi. *Birinchidan*, rayonlashtirish tabiiy va iqtisodiy geografiya uchun umumiy usul bo‘lib, ikki sxema bir-birini inkor etmaydi, chunki ular turli maqsadga xizmat qiladi. *Ikkinchidan*, mintaqa, subregion, o‘lka, provinsiya, okrug va rayon atamalarining xalqaro miqyosda tasdiqlangan yagona taksonomiyasi yo‘q. Rasmiy maqomga faqat BMT, Yevropa Ittifoqi va alohida davlatlarning statistik tasniflari ega, tabiiy geografik va iqtisodiy geografik pog‘onalar esa ilmiy maktablar doirasida qabul qilingan. *Uchinchidan*, barcha qit’alarda rayonlashtirish aniq amaliy vazifaga xizmat qiladi va ma’muriy-statistik to‘r funksional rayonlar bilan to‘ldiriladi. *To‘rtinchidan*, O‘zbekistonning olti iqtisodiy rayoni ixtisoslashuv jihatidan aniq ifodalangan va ma’muriy chegaralar orqali ajratilgan.

Shulardan kelib chiqib, iqtisodiy rayonlar to‘rini davlat statistik tasnifi sifatida rasman tasdiqlash va rayonlar kesimida statistika yuritish, tabiiy va iqtisodiy geografiyada qo‘llanadigan taksonomik atamalarning pog‘onasini yagona qiyosiy jadval asosida kelishib olish, Zarafshon va Quyi Amudaryo rayonlarida voha va cho‘l qismlarini kichik rayon sifatida ajratish, rayon va aglomeratsiya chegaralarini mayatniksimon migratsiya oqimlari bilan tekshirish hamda mahsulotni korxona ro‘yxatdan o‘tgan joy bo‘yicha emas, balki ishlab chiqarilgan joyi bo‘yicha hisobga olish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Australian Bureau of Statistics. Australian Statistical Geography Standard (ASGS). Edition 3: Statistical Area Level 4. – Canberra: ABS, 2021. – URL: https://www.abs.gov.au

2. De R. Economic Regionalization of India 1960-61 and 1970-71: A Study in Quantitative Methods. Ph.D. thesis. – Calcutta: Indian Statistical Institute, 1981. – 296 p.

3. Deng G., Sun L. Regional Disparities and Spatiotemporal Evolution of Data Element Development in China's Eight Comprehensive Economic Regions // Sustainability. – 2026. – Vol. 18. – 3595.

4. Drobne S. Functional regions and areas: literature review according to application fields // Geodetski vestnik. – 2017. – Vol. 61, No. 1. – P. 35–57.

5. Fenneman N.M., Johnson D.W. Physical divisions of the United States. – Washington: U.S. Geological Survey, 1946 (Physiographic divisions of the conterminous U.S.: USGS dataset). – URL: https://www.sciencebase.gov/catalog/item/631405bbd34e36012efa304e

6. Good P.R., Derudder B., Witlox F.J. The regionalization of Africa: Delineating Africa's subregions using airline data // Journal of Geography. – 2011. – Vol. 110(5). – P. 179–190.

7. Hagler Y. Defining U.S. Megaregions. – America 2050, 2009. – 8 p.

8. Johnson K.P., Kort J.R. 2004 Redefinition of the BEA Economic Areas // Survey of Current Business. – 2004. – November. – P. 68–75.

9. Mitchell W., Stimson R. Creating a new geography of Functional Economic Regions to analyse aspects of labour market performance in Australia. Working Paper No. 10-09. – Newcastle: Centre of Full Employment and Equity, 2010. – 45 p.

10. OECD. Redefining Territories: Functional Regions. DT/TDPC/TI(2002)3. – Paris: OECD, 2002. – 15 p.

11. OECD. OECD Territorial grids. – Paris: OECD, 2021.

12. Ou Y., Kim E., Liu X., Nam K.-M. Delineating functional regions from road networks: The case of South Korea // Environment and Planning B: Urban Analytics and City Science. – 2023. – Vol. 50(6). – P. 1677–1694.

13. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy sayti. – URL: https://stat.uz

14. Qurbonov Sh.B., Fedorko V.N. O‘zbekiston geografiyasi. II qism: O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi: darslik. – Toshkent: Yangi Chirchiq prints, 2024. – 384 b.

15. Regulation (EC) No 1059/2003 of the European Parliament and of the Council of 26 May 2003 on the establishment of a common classification of territorial units for statistics (NUTS). – URL: https://eur-lex.europa.eu

16. Soliyev A.S., Jumaxanov Sh.Z., Toshpo‘latov A.M. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya: darslik. – Namangan: Mashrab, 2024. – 408 b.

17. Toshpo‘latov A.M. So‘x anklavi yer resurslarini toifalar bo‘yicha antropogen yuklamani baholash va rayonlashtirish // Yashil O‘zbekiston: landshaft va biologik xilma-xillikni saqlash masalalari: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. II qism. – Farg‘ona: Farg‘ona davlat universiteti, 2025. – B. 138–151.

18. U.S. Census Bureau. Geography Program Glossary. – URL: https://www.census.gov/programs-surveys/geography/about/glossary.html

20. Бараталиев Ө., Алымкулова Н. География. Кыргызстандын экономикалык жана социалдык географиясы: 9-кл. үчүн окуу китеби. – Бишкек: Инсанат, 2012. – 272 б.

21. Баратов П., Маматқулов М., Рафиқов А. Ўрта Осиё табиий географияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2002. – 440 б.

22. Колосовский Н.Н. Теория экономического районирования. – М.: Мысль, 1969. – 336 с.

23. Муҳаббатов Х., Раҳимов М. Географияи Тоҷикистон: китоби дарсӣ барои синфи 8-ум. – Душанбе: Маориф, 2014. – 208 с.

24. Общероссийский классификатор экономических регионов ОК 024-95: утв. постановлением Госстандарта России от 27.12.1995 № 640 (с изменениями).

25. Смирнягин Л.В. Методические подходы к районированию в общественной географии // Вестник Московского университета. Серия 5. География. – 2011. – № 6. – С. 13–19.

27. Солиев А. Иқтисодий география: назария, методика ва амалиёт (Танланган асарлар). – Тошкент: Камалак, 2013. – 180 б.

28. Толыбекова Ш.Т., Головина Г.Е., Козина С.С., Ахметов Е.А. География Казахстана: учебник для 9 кл. Ч. 2. – Алматы: Мектеп, 2019. – 176 с.

29. Федорко В.Н. Природно-хозяйственное районирование Узбекистана: методология, таксономические уровни и схема // Центральноазиатский журнал географических исследований. – 2021. – № 1-2. – С. 19–34.

30. Федорко В.Н. Территориальная структура природопользования в Узбекистане: теоретико-методологические и практические аспекты исследования. – Ташкент: ZEBO PRINT, 2022. – 288 с.

31. Федорко В.Н., Курбанов Ш.Б. Экономические районы Узбекистана в территориальной структуре его национальной экономики // Метаморфозы современного российского пространства: приоритеты общественно-географического анализа. – Краснодар: Кубанский государственный университет, 2024. – Т. 1. – С. 286–294.